

# **Ko‘rgazmali texnik vositalardan foydalanish shart – sharoitlari**

**Ataboyeva Muxlisa Azimjon qizi**

**Xalqaro Nordik Unversiteti**

**Tyutor, tarbiyachi – pedagog**

**[mataboyeva@nordicuniversity.org](mailto:mataboyeva@nordicuniversity.org)**

**+99890-817-07-32**

**Abstract:** This article describes the conditions and requirements for using visual aids in music culture classes. It also reflects the thoughts and views of prominent scholars, scientists, artists and progressive educators from the medieval East on this topic.

**Kalit so‘zlar:** Ko‘rgazmali texnik vosita, zamonaviy o‘qitish usulli, darslik, pedagogik texnalogiya, axborot texnologiya

Ko‘rgazmali texnik vositalardan foydalanish metodi qadim zamonlardan beri ishlatib kelayotgan eng qulay, samarali va tushunarli metodlardan biri hisoblanadi. Hattoki, jadid maktablarida ham zamon talablariga to‘la javob bera oladigan pedagoglar guruhini tarbiyalab yetishtirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘zida mujassamlashtirilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar yaratish, yangi texnik vositalar, ko‘rgazmali qurollar ishlab chiqishga katta e’tibor qaratishgan. Buning uchun esa Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat kabi mutafakkirlarimiz mакtabning nazariy asoslarini yaratish, yangi zamonaviy o‘qitish usullarini ishlab chiqish va ulardan yosh avlod o‘qituvchilarini bahramand qilish uchun, bu masulyatli ishni o‘z zimmasiga olishdi.

**O‘z zamonasining yirik ma’rifatparavar, pedagog Abdulla Avloniy o‘qitishda birinchi bo‘lib texnik vositalardan foydalangan<sup>1</sup>** Abdulla Avloniying fikricha “ko‘rgazmali texnik vositalar o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida namoyon qilishi oson va qancha tasavvur qilsa shuncha, tushunib, his qilgani sari

---

<sup>1</sup> «Ma’rifat»- «Учитель Узбекистана» gazeta. “Abdulla Avloniy – milliy uyg‘onish davri o‘zbek pedagogikasining asoschisi” 16.09.2022

o‘quvchilarni shunchali diqqatli bo‘ladi”. Shuningdek Abdulla Avloniy o‘quvchilarining xor bo‘lib o‘qishlarini dirijyordek (**Abdulla Avloniyni dirijor san’atidan xabardor edi – U.D**) boshqarib borgan.U faqatgina shu bilan kifoyalanmagan, yangi, zamonaviy usullarni ishlab chiqgan.

1910 – yillarda Abdulla Avloniy Riga shahridagi “Gramafon” jamiyati vakillari O‘rta Osiyo shaharlariga kelib, o‘zbek, qozoq, tojik, turkman xalqlari orasidagi mashhur hofizlarning kuy va qo‘shiqlarini, dostonlarini, xalq maqomlarini yozib olishadi. Abdulla Avloniy “Maktabga targ‘ib” she’rini bastakor sifatida alohida diqqat bilan kuya soladi va o‘quvchilarni xor bo‘lib o‘qishga o‘rgatadi va 1911 – yilga kelib gramplastinkaga yozdiradi. Uning bu faoliyati nafaqat ifodali o‘qishga, xor bo‘lib o‘qishga, kuylashga, musiqa va ashula darslarini tashkil qilishda ham muhim ahamyat kasb etadi.

Abdurauf Fitrat ham 1922 – 1923 – yillarda Buxoro Xalq Respublikasidan Germaniyaga, Turkiyaga talabalar yuborish bilan birga, ilg‘or Yevropa ta’lim ta’rbiyasi, ilm – fan, texnika sirlarini o‘rganib ta’lim jarayonida qo‘llagan pedagog hisoblanadi. Ularning asarlarida zamonaviy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslari ochib berilgan, milliy ruh ufurib turgan darslik va majmualar yaratgan. Bundan maqsad o‘quvchilarni barkamol inson sifatida voyaga yetkazish, ularni yaxshilikka chorlash, yomonlikdan qaytarish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi g‘oya yotadi.

Yevropada ham texnologiya va texnik vositalar to‘g‘risida ko‘plab muhokamalar o’tkazishgan. Shu jumladan Amerika, Angliya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Vengriya 1911 -1970 – yillarning boshlarida o‘quv uskunalarini o‘quv vositalarini modernizatsiyalashtirish zarurligini anglab yetishdi. Bularsiz o‘qitishning sifatliligi va samaradorligiga erishib bo‘lmash edi.

AQSh olimlari tomonidan 1940 – 1950 – yillar o‘rtasigacha o‘quv jarayonida audiyo – vizual texnik vositalardan foydalanish bo‘yicha turli xil izlanishlar olib borishgan. Keyinchalik Amerika, Angliya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Vengriya ta’lim jarayonida texnik vositalardan foydalanish to‘grisida chet el pedagogik

nashrlarda, xalqaro konfrensiyalarda keng muhokama qilindi va ikki yo‘nalishda belgilandi.

Birinchi yo‘nalish tarafдорлари texnik vositalar va dasturlashtirilgan o‘qitish vositalarini qo‘llash zarurligi to‘g‘risida.

Ikkinci yo‘nalish tarafдорлари esa o‘quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish va pedagogik g‘oyalarning texnikaning keskin rivojlanishidan ortda qolmaslik muhim deb hisobladilar.

1960 – yillari va 1970 – yillarning boshlarida AQSH, Angliya, Yaponiya, Italiya kabi rivojlangan davlatlarda pedagogik texnologiyalar masalalari bilan shug‘ullanuvchi jurnallar nashr etila boshlandi. Keyinchalik, bu muommo bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar va markazlar shug‘ullana boshlaydi. 80 – yillarning boshida ta’limning komputerli va axborot texnologiyalarini yaratish tushunilgan. Bu tushuncha Amerika va G‘arbiy yevropada ta’limni isloh qilinishi bilan kirib keldi. B.Blum, D.Kratvol, J.Blok, B.Skinner, P.Ya. Galperin, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I.Zankov texnikalari bilan mashhur bo‘lgan. O‘qitish jarayonida texnik vositalar bilan yondashuvlari V.P.Bespalko, V.Guzeyev, V.Slastenin, M.V.Klarin, B.Lixachev, N.F.Tralizina, L.M.Fridman, T.V.Kudryashev, A.M.Matyushkin, M.I.Maxmutov kabiladir.

Ko‘rgazmali texnik vosita yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat texnik vositalar nazariy asosi kuchaytirilgan, amaliy tomoni esa u qadar oydinlashtirilmagan. Vaqt o‘tishi bilan ularni qo‘llash darjasи kengayib borish natijasida o‘zgarib borgan va katta e’tibor qaratilgan. Hozirgi kunda ham, rivojlanishdan to‘xtamayapdi, yangi texnik vositalar va ulardan foydalanish, darsning sifati va samarasini oshirish bo‘yicha turli xil shart sharoitlar yaratilmoqda.

Bundan tashqari hozirgi kunda musiqa madaniyati darslarida zamonaviy ko‘rgazmali texnik vositalarsiz, maxsus jihozlangan sharoitsiz amalga oshirish murakkab. Musiqa xonasining estetik did bilan jihozlanishi bolalarga ruh bag‘ishlab, darsga o‘ziga xos kayfiyat, qiziqish uyg‘otishi kerak. O‘quvchilarga milliy cholgi asboblari, texnik va ko‘rgazmali vositalar judda ham muhim. Ularning sifatliligidan, o‘z vaqtida tayyorlanganligidan va ununmli tadbiq etishdan darsning muvaffaqiyatli

o‘tishini ta’minlaydi. Shu bilan birga o‘qituvchi qaysi vositadan qachon foydalanishi, qanday vositalarni qo‘llashni darsning maqsadi, mazmunidan kelib chiqan holda amalga oshirishi zarur. Ko‘rgazmali texnik vositalar dars jarayonini to’ldiradi va uyg‘unlashtiradi. Yangi texnologiyalar, moslamalar va jihozlar sohasidagi o‘zgarishlar, yangi yo‘nalishlar orqali o‘quvchilar darsni tushunishi, mustaqil ishalashi, o‘quv jarayonida faol qatnashishga ko‘maklashadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, L.V. Shcherba shunday fikr bildirgan “Zamonaviy ta’limni tashkil etishda qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda muhim faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o‘quvchi faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va ta’lim jarayoniga yangicha yondashuv talab etadi”. Darhaqiqat, aynan mana shu texnik vositalar yordamida qisqa vaqt jarayonida o‘quvchilarga yetkazib berishimiz osonlashishi uchun zamonaviy ta’lim yaratilmoqda, va qisqa vaqt ichida yuksak marralarni zabit etishimiz uchun hozirgi kunda mamlakatimiz yangi texnik vositalarni uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish, takomillashish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda ta’lim samaradorligini oshirish birinchi o‘rinda turmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” “O‘zbekiston” nashryoti Toshkent – 2022/19 - bet
2. «Ma‘rifat»- «Учитель Узбекистана» gazeta. “Abdulla Avloniy – milliy uyg‘onish davri o‘zbek pedagogikasining asoschisi” 16.09.2022
3. <https://www/gazeta.uz/oz/> “O‘zbekistonda 2023 – yil “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”deb e’lon qilindi” 20/12/2022